

Farg'ona viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-fevral dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDOAYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 7 444 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 151 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 293 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-fevral oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 919,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 115,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 690,6 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 625,3 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 603,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 145,7 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 376 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 29 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 347 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 239,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 25,2 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 5 090,7 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 127,4 % ga to'g'ri keldi va viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 97,2% ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Dang'ara (191,0 m.) va O'zbekiston (2,5 m.) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 988 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 983 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-fevral oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 464,1 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovara ylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga ma'sul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: Tel: +998732419768	Ijrochi: N.Mahmudova Tel: +998732419768	Manzil: Farg'onash., Oq yo'l ko'chasi, 104-a
---	--	---	---